O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
ANDIJON VILOYATI
BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Ashurov Behzodbek Orifjon O‘g‘li

2026 - yil 26 - fevraldagi 274590 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Andijon tumani, Do`ng qishloq MFY Yangi Andijon massivi hududida" 5 qavatdan yuqori bo`lgan ko`p qavatli turar-joy (26-uy)" bino va inshootlari qurilish (F-26)
Buyurtmachi: BUNYODKOR TRANS SERVIS MCHJ
Bosh loyihachi: "ANDIJON FUQAROLOYIHA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi: BUNYODKOR TRANS SERVIS MChJ
Qurilish turi: Yangi qurilish
Murojaat raqami: 110828

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-iyuldagi №PQ-5180 sonli qarori.

1.2. Elektron-onlayn auksion natijalari to`g`risidagi 31.05.2024-yilda rasmiylashtirilgan №YU-1163139-sonli Bayonnoma.

1.3. Andijon viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan 2025-yil 3-oktabrda berilgan №1703-1703203-241498-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi BUNYODKOR TRANS SERVIS MChJ rahbari tomonidan tasdiqlangan va “Yangi Andijon direksiyasi” DUK direktori hamda bosh loyiha tashkiloti bilan kelishilgan 2026-yildagi loyihalashtirish topshirig'i.

1.5. Buyurtmachi BUNYODKOR TRANS SERVIS MChJ hamda bosh loyiha tashkiloti o`rtasidagi 2025-yil 22-oktabrda tuzilgan №24-26/2025-sonli loyiha-tadqiqot ishlari uchun tuzilgan shartnoma.

1.6. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 2026-yil 14-yanvardagi №242046350-sonli xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyiha bosqichida to'liq loyixa smeta xujjatlari.

2.2. Ruhsatnomalar va kelishuv xujjatlar jamlanmasi, umumiy tushuntirish kitob tarzida.

2.3. Muxandislik geologik qidiruv ishlari “GEO VALLEY GOLD” MChJ tomonidan 2026-yilda №515-sonli shartnomaga asosan bajarilgan xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Tashqi xavoning minus 16 C li qurilish tumani

Qordan tushadigan yuk - 50 kg/mI

Shamolning ta'sir kuchi - 38 kg/mI

Yozgi xisobiy xavoning issiqlik xarorati + 33 C.

Maydon seysmikligi 8 - balli.

3.2. Bosh reja:

“5 qavatdan yuqori bo`lgan ko`p qavatli turar-joy (26-uy)” bino va inshootlari qurilishi (F-2 6) Andijon tumani, Do`ng qishloq MFY, Yangi Andijon massivi hududida joylashgan. Qurilish maydoni uchun Elektron-onlayn auksion natijalari to`g`risidagi 31.05.2024-yilda rasmiylashtirilgan №YU-1163139-sonli Bayonnomasiga asosan yer maydoni qurilish ishlari uchun ruxsat berilgan. Bosh reja mavjud tarmoqlar va xudud past-tekisliklarini xisobga olgan xolda ishlangan. Loyihalashtirish uchun tanlangan yer maydoni quyidagicha chegaralangan: shimol tomondan — ichki ko’cha bilan chegaralangan, sharq tomondan — ichki ko’cha bilan chegaralangan, janub tomondan — turar joy uyi bilan chegaralangan, g’arb tomondan — bo’sh yer maydoni bilan chegaralangan. Bosh rejada loyihaviy F qator, №26-sonli turar-joy binosi, dam olish ayvonchasi, bolalar maydonchasi, kattalar maydoni, avtoturargox, chiqindi yig`ish qutisi va workout re’jalashtirilgan.

Bosh rejada:

- bino va inshootlar, obodonlashtirish gorizontal nuqtalar asosida bog’langan;
- xududga Avtomobil yo’lidan kirish va chiqish tashkil etilgan.
- xududning tasdiqlangan bosh rejasiga asosan to’liq xududda qo’shni obyektlar bilan birgalikda ishlarni tashkil etish ko’zda tutilgan.
- xududga avtoturargox, bolalar maydonchasi, yashil xudud va dam olish joylari ko’zda tutilgan.

Maydon rel`yefi:

Maydon rel`yefi qiyaligi janubdan shimolga qarab katta bo’lmagan xajmda. Belgilar farqi 0,22m mavjud gorizontal belgilar xar 5,0m. Rel`yef mavjud atrofdagi xududga bog’lanib tayyorlangan va yog’in suvlarni to`siqlarsiz maydondan tashqariga chiqishi xisobga olingan. Loyixaviy rel`yef gorizontal yo`nalishda xar 20,0 m qabul qilingan, binolar burchaklari bo’ylab loyixaviy belgilar berilgan va o’tish yo’laklar o’qlariga bog’langan.

Loyixaviy bo’ylama qiyalik yo`l o’qlari bo’ylab 1,4 % dan 3,5 % gacha qabul qilingan.

Maydon qoplamalari quyidagicha loyixalangan:

- yo`laklar, burilib olish maydonlari quyma betonli bordyurli, 20 sm qalinlikdagi shag’al to`shamali asos ustiga 5 sm qalinlikdagi beton to’shama qilib bajarilgan;
- h=5sm qalinlikdagi yuvilgan qum to’shama ustiga h=8sm qalinlikdagi beton plitkali (bruschatka) quyma betonli bordyurli qilib bajarilgan.

Sug’orish tarmog’i:

Sug’orish tarmog’i tuproqli va yig’ma LI-1-BT temirbetonli ariqchalar ko’rinishida bajarilgan. Sug’orish tarmog’i yo’laklar bilan kesishgan joylarda 0,4m o’lchovli asbestsement quvurlar yotqizish orqali amalga oshirilgan.

Ko’kalamzorlashtirish:
Xududda jozibali va mikroklimat xosil qilish maqsadida ko’kalamzorlashtirish ishlari loyixada ko’zda tutilgan. Daraxtlar, bak butalar rang-barangligini va joylashuvini ularning ketma-ket o’sishini xisobga olgan xolda joylashtirigan.
Xududdagi yomg`ir va sug'orish suvlari ochiq xoldagi beton lotoklar orqali xududdan tashqariga chiqariladi.

3.3. Yong`in xavfsizligi tizimi:

Loyiha hujjatlarida qabul qilingan yong‘in xavfsizligi tadbirlarining qisqacha tavsifi.

Loyiha bilan 1 ta blokdan iborat 8 qavatli (8-qavati pentxaus) turar joy binosi qurilishi rejalashtirilgan. Yarim yerto‘la qavati lift ro‘parasida tamburshlyuz, bevosita tashqariga chiqish uchun evakuatsiya yo‘llari va chuqurchalar bilan ta’minlangan derazalar mavjud. Yarim yerto‘la va 1-8 qavatlarida yashash kvartiralari joylashtiriladi. Tom qismi – yassi. Tom qismiga chiqish ichki umumiy zinapoya orqali. Isitish tizimi – mahalliy.

Konstruksiyalarning chegaralangan holatlariga ko‘ra, binoning olovbardoshlik darajasi – II, konstruktiv yong‘in xavfi sinfi – S0, funksional yong‘in xavfi sinfi - 1.3.

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida ko‘zda tutilgan tadbirlar:

Loyiha hujjatlarida devorlarning tashqi fasad qismi yonmaydigan materiallar, har bir kvartiradan ochiq turdagi balkonlar, balkonlarda avariya lyuk va zinalari, tom qismida tutqichlar, tom qismi balandligi o‘zgarish joyida yong‘in zinasi, yong‘in o‘chirish tashqi manbasi sifatida hududda yong‘in o‘chirish gidranti, kvartiralarning ichki yo‘lak va oshxonalarida yong‘in signalizatsiya tizimi habarlagichlari, chiqish joylarida yong‘in signalizatsiyasining qo‘lda ishlovchi tashvishgohlari, yong‘in-qutqaruv avtomobillarini harakatlanishi uchun qattiq qoplamali yo‘llar.

3.4. Me'moriy va konstruktiv yechimlari:

Loyihaviy “Ko`p qavatli turar joy” binosi - 8 qavatli, 8-qavati penthaus uslubida ko'p xonadonli turar-joy binosi to'g'ri to'rtburchak shaklida, quyma pilon konstruksiyada 19.20x15.30 m, qavat balandligi h=3.0m, 8 qavatli turar-joy binosining yarim yerto’la qismi umumiy maydoni 196.05 m2, yashash maydoni 106.55 m2 ni tashkil qiladigan 3 ta 2 xonali va 1 ta 3 xonali xonadon joylashgan. Texnik xona - 16.86m2. Xonadonlar oldi maydonining umumiy maydoni - 32.81m2 dan iborat. Lift maydoni - 4.80m2. Binoning 1-qavatida umumiy maydoni 93.62 m2 dan, yashash maydoni 45.80 m2 dan iborat 2 ta 2 xonali xonadon joylashgan. Savdo zali - 137.08 m2. Xonadonlar oldi maydonining umumiy maydoni - 10.08m2, zinapoya kataklari maydonining umumiy maydoni- 13.78m2 dan iborat. Binoga kirish qismida nogironlar uchun ko’taruvchi moslamadan zinapoya katagigacha NBSh to’siqlarsiz xarakatlanishi uchun sharoit yaratish maqsadida nogironlar uchun ko’taruvchi moslamadan 1-qavat lift maydonigacha sariq rangli ogohlantiruvchi, yo'naltiruvchi, axborot beruvchi sariq rangli 50 mm kenglikdagi lentalar yopishtirish ko'zda tutilgan. Binoning 2-qavatida umumiy maydoni 236.40 m2, yashash maydoni 134.46 m2 dan iborat 3 ta 2 xonali va 2 ta 3 xonali xonadon joylashgan. Xonadonlar oldi maydonining umumiy maydoni - 16.06m2 dan iborat. Binoning 3 – 4 - qavatida umumiy maydoni 474.60 m2, yashash maydoni 270.24 m2 dan iborat 6 ta 2 xonali va 4 ta 3 xonali xonadon joylashgan. Xonadonlar oldi maydonining umumiy maydoni - 32.12m2 dan iborat. Binoning 5-6-7-qavatida umumiy maydoni 711.87 m2, yashash maydoni 405.36 m2 dan iborat 9 ta 2 xonali va 6 ta 3 xonali xonadon joylashgan. Xonadonlar oldi maydonining

umumiy maydoni - 48.18m2 dan iborat. Binoning penthaus qavatida umumiy maydoni 248.78 m2, yashash maydoni 95.72 m2 dan iborat 3 ta 2 xonali va 1 ta 3 xonali xonadon joylashgan. Xonadonlar oldi maydonining umumiy maydoni - 10.08m2 dan iborat. Ko'p qavatli turar joy binosining umumiy maydoni - 2283.17 m2, yashash maydoni - 1058.13 m2 ni tashkil qiladi va xonadonlar soni 40 tani tashkil etadi. Binoda kirish va yo'lak, sanitar tugun, oshxona, mehmonxona, yotoqxona, balkon va yozgi ayvon joylashgan.
Ichki pardozlash ishlari - devor va shiftlar yuqori sifatli suvemulsiyali bo'yoq bilan bo'yash, devorlar pastki qismi akril bo'yoq bilan bo'yoqlash, oshxona, sanitar tugun xonalari devorlari keramik plitka bilan pardozlash ko'zda tutilgan. Tashqi pardozlash ishlari - bino tashqi ko'rinishini sement qorishmali «travertin» suvoq qilish, sokol «keramogranit» plitka bilan pardozlash ko'zda tutilgan. Derazalar - PVX rusumli plastikdan, eshiklar metal, MDF, PVX va alyumin rusumli eshiklar o'rnatish ko'zda tutilgan.
Poydevor tagiga beton qorishma - yahlit quyma beton sinfi B7.5, h=100mm. Poydevor - yah lit(сплошной) quyma temirbetondan, beton sinfi B20, h=0.5m. Poydevor devor(pilon) lari - quyma temirbetondan beton sinfi B22.5, devorlar qalinligi 300 mm. Lift devori qalinligi 200 mm. Orayopmalar va tomyopma - quyma temirbetondan, beton sinfi B22.5, qalinligi 160 mm. Ko`ndalang va bo`ylama o`qlarda plita rigellar. Qavatlar devori - quyma temirbetonli, qalinligi 300 mm. Tashqi va ichki devorlar (to`ldiruvchi) –
gazoblokdan iborat va har 3 qatorda bo`ylamasiga  8 A-I armaturali setka to`shaladi.
Gazoblok zichligi 600kg/m³ qalinligi 200 mm, pardadevorlar gazoblokdan qalinligi 100mm. Tashqi devorlarning issiqlik himoyasi - binoning tashqi devorlari bazalt tolali PPJ 120 plitalari bilan qoplanadi. Zinapoyalar - quyma temirbetondan, beton sinfi B22.5. Lift shaxtasi - quyma temirbetondan, beton sinfi B22.5. Quyma temirbeton devor qalinligi 200 mm. Tom - yumshoq qoplamali.
Undan tashqari ishchi loyihada yong’inga qarshi gidrantlar o’rnatish, muxandislik tarmoqlarini qurish, bolalar maydonchalari va boshqa xo’jalik hovli qurilmalarini qurish va obodonlashtirish ishlarini bajarish ko'zda tutilgan.

Ishchi loyihada;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablariga muvofiq amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan ish turlari.

- Issiq suv ta’minoti issiqlik punktidan va bino va inshootlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish talablari ko‘zda tutilgan, binoda o‘rnatilgan quyosh batareyasi kollektoridan qo‘shimcha issiq suv ta`minlanishi ko‘zda tutilgan.
- Energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan.
- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya`ni, quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan.
- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismiga 50 mm qalinlikdagi mineral vata (bazalt) qoplash ko`zda tutilgan.
- Tom yompasining issiqlik himoyasi - mineralvatadan 100 mm.
- Pol issiqlik qatlami – 30 mm qalinlikdagi penopleksdan qoplanadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori talablari bo`yicha:

- nogironligi bo`lgan shaxslar uchun avtoturargoh re’jalashtirildi va maxsus belgilarni o`rn atish rejalashtirildi;
- hudud bo’ylab ogoxlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar qoplandi;
- binoning kirish qismida me`yoriy qiyalikka ega bo`lgan pandus tutqichlar bilan rejalashtirildi;
- yarim yerto’la qavatga tushish uchun ko’tarish moslamasi re’jalashtirildi;
- binoda ogoxlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar qoplandi;
- nogironligi bo`lgan shaxslar uchun hojatxona tashkil qilindi va uni jihozlandi;
- nogironlar uchun taktil piktogramma, kirish eshiklariga sariq rangda kontrast belgi va kontrastli lenta.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Obyektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan 2025-yil 3-oktabrda berilgan №1703-1703203-241498-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiq hal qilinadi:

- Ichimlik suv ta’minoti “Andijon Suvta’minoti” AJ Andijon tuman filialining 2026-yil 2-fevraldagi №168-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Elektr ta'minoti “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 2026-yil 23-yanvardagi №03203159339-sonli texnik shartiga muvofiq xal qilinadi.

Issiqlik tizimi va shamollatish tizimi:

Issiqlik ta’minoti tashqi issiqlik tarmoqlaridan amalga oshiriladi. Isitish tizimi ikki quvurli, issiqlik uzatilishiga qarab yotqizilgan, polipropilen va po‘lat quvurlar qabul qilingan. Isitish jihozi sifatida bimetall radiatorlar qo‘llanilgan. Shamollatish tabiiy va mexanik yo‘l bilan bajariladi. Toza havo xonalarga deraza, eshiklar orqali amalga oshiriladi.

Ichimlik suvi va oqova suvi tizimi:

Ichimlik suvi, shaxar ichimlik suvi tarmogidan rejalashtirilgan. Issiq suv ta’minoti markazlashgan issiq suv tarmog‘idan va quyoshli suv isitish kollektorlaridan amalga oshiriladi. Polipropilen quvur qo‘llanilgan. Ichki oqova suv tarmog‘i o‘z oqimi bilan oquvchi, PVX plastmassa quvur bilan loyihalashtirilgan. Oqova suvlarni tashqi oqova suv tizimiga yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

Elektr taminoti:

Ushbu elektr qismi ShNQ 2.04.17-2019, ShNQ 2.08.01-2019, ShNQ 2.01.05-2024 va PUE ga muvofiq loyihaning arxitektura-qurilish qismining vazifalari asosida amalga oshirildi. Elektr ta’minotining ishonchliligi nuqtai nazaridan turar joy binolari II toifali iste’molchilarga tegishli. Binolarning elektr energiya iste’mol quvvatlari:

VRU:

Hisobiy quvvat - Ph-169.66 kW;

Hisobiy tok - Ih-282.76A

Kvartiralarning ta'minot liniyalari ko'targichlarining loyihaviy yuklari, shuningdek kirishdagi loyihaviy yuklar ShNQ 2.04.17-2019, 2-jadvalga muvofiq 13-bandning (quvvati 8 kW gacha bo'lgan elektr plitali xonadonlar) eslatmalarini hisobga olgan holda, har bir xonadonning solishtirma yukiga va kvartiralar soniga qarab belgilanadi. Kirish - tarqatish qurilmasi sifatida AUO blokli VRU1-23-55UXL4 seriyasi qabul qilindi. Turar-joy binosida elektr energiyasini hisobga olish EX-518 tipidagi elektron hisoblagich bilan ta'minlanadi. Umumiy maishiy iste'molchilarni hisobga olish VRU ning kirish tarqatish qurilmasiga

o'rnatilgan elektron hisoblagich orqali amalga oshiriladi. Har bir qavatda o'rnatilgan ShE 3401va ShE 3501 qavat shitlari EX-18 tipidagi elektr hisoblagichlari va UZO tipidagi himoya uzish qurilmalari bilan birgalikda qavat shiti sifatida qabul qilinadi. Xonadon shitlari sifatida bir fazali elektron to'xtatuvchilari bo'lgan ShRN tipidagi shitlar qabul qilindi. Qavat shitlariga magistral tarmoqni podvaldagi kabel yotqizgichlari va ko'tariluvchi qavslar bo'ylab VVG ng kabeli bilan amalga oshiriladi. Zinapoyalarni va lift oldi yo'laklarini ishchi yoritish uchun elektr ta'minoti tarmog'i devorlar bo'ylab ko'tariluvchi gofra trubalardagi VVGng kabeli bilan amalga oshiriladi.

Bino tomida quvvati 15kVt bo’lgan quyosh fotoelektr stansiyasi o’rnatish ko‘zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 2026-yil 14-yanvardagi №242046350-sonli xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertiza markazi Andijon viloyati filialining 2025-yil 13-noyabrdagi №01-02/03-7094-sonli Davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **10 940 976 432** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **318 884 552** so'mga oshirilib,

11 259 860 984 so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **8 785 246 325** so'm

Asbob-uskunalar: **1 268 200 982** so'm

QQS: **1 206 413 677** so'm

6.1. Loyixa-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudradchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.3. Ekpertizaga oid ko‘rib chiqish jarayonida ishchi loyihaning bo'limlari yuzasidan berilgan e'tiroz va kamchilliklarni to'liq bartaraf etish lozim.

6.4. Ushbu ekspertiza xulosasida pudratchining boshqa harajatlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Andijon viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi. Vaholanki, Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 2026-yil 14-yanvardagi №242046350-sonli xulosasida obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan.

6.5. Ekspert mutahassislar tomonidan ko`rsatilgan bandlar buyurtmachi va loyiha tashkiloti tomonidan to`liq bajarilmagan taqdirda ushbu ekspertiza xulosasi o`z kuchini yo`qotgan deb xisoblanadi.

6.6. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar, shu jumladan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi bilan kelishish lozim.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini

aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

6.8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.9. Buyurtmachi loyiha xujjatlarini tasdiqlashdan oldin, ob’ekt loyixa-smeta xujjatlarini qisqa muddatlarda ko‘rib chiqib, yig‘ma ekspertiza xulosalari taqdim etilishi talab etilganligini inobatga olib, normativ talablarga mos kelmagan loyixa yechimlarini ShNQ talablariga moslashtirish yoki ShNQ ning o‘sha bandiga tegishli o‘zgarishlar kiritish sharti bilan tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

6.10. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2024-yildagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda ShNQ 2.01.02-04, ShNQ 2.04.09-21, ShNQ 2.07.01-23, ShNQ 2.08.01-24, ShNQ 2.08.02-23, ShNQ 2.08.04-24, ShNQ 2.07.02-24 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablarini hisobga olgan holda, loyihalashtirish topshirig‘iga asosan talablarga to`liq amal qilinsin.

6.11. Taqdim etilgan umumiy miqdori buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va 12% QQS bilan 10 940 976 432 so'mni tashkil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so`ng 318 884 552 so'm o`zgargan ish hajmlari hisobidan ortdi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini xisobga olib ishchi loyixa-smeta bo`yicha Andijon tumani, Do`ng qishloq MFY, Yangi Andijon massivi hududida “5 qavatdan yuqori bo`lgan ko`p qavatli turar-joy (26-uy)” bino va inshootlari qurilishi (F-26), obyektini quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ko'ra keyingi kelishuv va tender savdolarini o'tkazish uchun tavsiya etiladi:

Qurilish maydoni	- 300.70 m;
Umumiy maydon	- 2 283.17 m;
Yashash maydoni	- 1 058.13 m;
Qurilish hajmi	- 8 455.68 m;
Me'yoriy mehnat sarfi	- 68548.18 odam/soat;
Joriy narxdagi tavsiyaviy (boshlang'ich) miqdori 12% QQS bilan (Buyurtmachining boshqa harajatlarisiz)	- 11 259 860 984 so'm.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7.3. ShNQ 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Ishtirokchi ekspertlar: Abdurashidov Miryusup Kobulovich, Primqulov Raximjon Ibragimjonovich, Egamov Javlon Naimjanovich, Madmarov Baxtiyor Baxodirovich, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Nazarkasimova Feruza Muxamadaliyevna, Soliyev Joxongir Maripjon O‘g‘li

Bosh ekspert



SOLIYEV JOXONGIR MARIPJON O‘G‘LI